IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: RH01458042

28/3-3-son

16-yanvar 2026-yil.

“TASDIQLAYMAN”
Iqtisodiyot va moliya vazirining
birinchi o‘rinbosari

I. Norqulov

2026-yil 16-yanvar

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limining 2026-yilga mo‘ljallangan

ISH REJASI

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishida				
1.	Korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish ishlari doirasida barcha ichki idoraviy hujjatlarni amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirib borish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yangidan qabul qilingan qonunchilik hujjatlari asosida vazirlikning barcha ichki idoraviy hujjatlarini qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirib borish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
2.	Vazirlikda korrupsiyaga qarshi tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlash.	1. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini monitoring qilib borish. 2. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining ISO 37001:2025 xalqaro standartini joriy qilish choralarini ko‘rish.	2026-yil davomida 2026-yil dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish yo‘nalishida				
3.	Vazirlik tizimi tashkilotlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va odob -axloq qoidalariga rioya qilish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish.	Qonunchilik, mehnat qonunchiligi, jamiyatda yurish-turish qoidalari, odob-axloq qoidalari, ichki tartib-intizom hamda ijro intizomiga rioya etilishini ta’minlash. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan ta’sirchan profilaktika va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
4.	Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish va nazoratga olish.	Ishga yangi qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirish yuzasidan mashg‘ulotlar, trening, korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasida o‘qitish (umumiy va tanishuv) va boshqa tadbirlar tashkil etish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
5.	Barcha xodimlar uchun, shuningdek, korrupsiyaviy xavfi yuqori darajadagi funksiyalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazishni tashkillashtirish va nazoratga olish.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umumiy o‘qitish, korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni maxsus o‘qitish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi maxsus o‘qitish dasturlari asosida o‘qitishni (mustaqil ta’lim, ma’ruza, seminar, trening) tashkillashtirish va nazoratga olish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
6.	Xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi O‘quv markazida amalga oshirilayotgan malaka oshirish kurslarining maxsus modulida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat siyosati, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish,	o‘quv kurslari davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
		komplayens nazorati va odob-axloq qoidalari bo‘yicha mavzular kiritish.		
7.	“Xodimlarning shaxsiy masalalar bo‘yicha chet elga chiqishini kelishish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma” talablari ijrosini ta’minlash	O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida amalga oshiriladigan shaxsiy masalalar bo‘yicha safarlar va xizmat safarlari doirasidagi barcha jarayonlarda qonun buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etmaslik to‘g‘risida ogohlantirish. Shaxsiy masalada chet elga chiqqan xodimlar ro’yxatini yuritish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
8.	“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusida tadbirini tashkil etish.	“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzusida tadbirni tashkil etish, bunda: - tadbirda vazirlik markaziy apparati mustaqil bo‘linmalari rahbarlari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning sohaga mas’ul vakillari ishtirokini hamda hududiy bo‘linmalaridagi barcha xodimlarni onlayn tarzda (ZOOM orqali) ishtirok etishini ta’minlash; - tadbirga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda ommaviy axborot vositalari vakillarini taklif etish.	2026-yil dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish yo‘nalishida				
9.	Vazirlik va tarkibiy tuzilmalarning barcha vazifa va funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash.	1. Barcha vazifa va funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlab, har yillik baholashdan o‘tkazish. 2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajalarini (yuqori, o‘rta va past) belgilash hamda xaritasini tuzish, korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar ro‘yxatini shakllantirish.	2026-yil fevral-mart 2026-yil aprel	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		3. Aniqlangan barcha xavf-xatarlardan kelib chiqib korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ("yo‘l xaritasi") ishlab chiqib, xavflarni minimallashtirish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish.		
10.	Vazirlik tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan va yangi ishga kirgan boshqaruv xodimlari tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirilishini va taqdim etilishini tashkil etish.	1. Vazirlik tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimlarini ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirishini va taqdim etishini tashkil etish. 2. Taqdim etilgan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni tahlil qilish. 3. Tahlil natijalarini ko‘rib chiqish uchun Odob-axloq komissiyasiga kiritish va aniqlangan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rish.	2026-yil yanvar-fevral 2026-yil mart 2026-yil aprel	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
11.	Xodimlarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holatlarini aniqlash va ushbu holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish hamda manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish choralarini ko‘rish.	Xodimlarning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish holatlarini aniqlash va ushbu holatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
12.	Davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish, davlat xaridlari bo‘yicha preventiv o‘rganishlarni amalga oshirish.	Vazirlik bilan shartnomaviy munosabatga kirishayotgan kontragentlarni belgilangan tartibda tekshirish. Ushbu jarayonda hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlar soni xususidagi ma'lumotlarni kiritish va kontragentlarni tekshirish reyestrini yuritish, tekshiruvlar natijalari bo‘yicha davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
13.	Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni yo‘riqnoma talablari asosida tekshirish.	Ishga qabul qilinuvchi nomzodlarga nisbatan belgilangan tartibda tekshiruvlar o‘tkazib, natijalari yuzasidan xulosalar tuzish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
14.	Rasmiy veb-saytda joylashtirilgan korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil) doimiy va sifatli ishlashini nazorat qilish.	Vazirlik va uning tarkibiy tuzilmalarida tashkil etilgan korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil) belgilangan tartibda doimiy va sifatli ishlashini tekshirib borish.	2026-yil doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
15.	Korrupsiyaga oid murojaatlar (xabarlar) bilan ishlash.	@IMV_antikorrupsiya_bot orqali kelib tushgan murojaatlarning hisobini yuritish, ijroga qaratish va nazorat qilish	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
16.	Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar monitoringini amalga oshirish.	Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyati, xodimlarning xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan bog‘liq e’lon qilingan maqolalarni, materiallarni kuzatib borish va ma’lumotlarni ishonchliligini o‘rganish hamda lozim deb topilganda xizmat tekshiruvi o‘tkazish.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
17.	Ijro intizomiga rioya qilish.	Hujjatli topshiriqlar (Ijro.gov.uz, Edo.ijro.uz), jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini belgilangan tartibda va muddatlarda, sifatli ko‘rib chiqilishi hamda bajarilishini ta’minlash.	2026-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish yo‘nalishida				
18.	Huquqni muhofaza qiluvchi va sud idoralari tomonidan kiritilgan taqdimnomalar, shuningdek, boshqa zaruriy holatlar yuzasidan xizmat o‘rganishlarini o‘tkazish.	Huquqni muhofaza qiluvchi va sud idoralari tomonidan kiritilgan taqdimnomalar, shuningdek, xizmat o‘rganishiga asos bo‘luvchi boshqa holatlar yuzaga kelganda belgilangan tartibda xizmat o‘rganishini o‘tkazish. O‘tkazilgan xizmat tekshiruvi natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlangan holatlarda hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborilishini ta’minlash.	2026-yil talab etilgan hollarda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
		Xizmat o‘rganishida aniqlangan holatlarni tahlil qilib, bunga sabab bo‘lgan omillarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.		
19.	“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori talablari asosida E-anticor.uz platformasiga choraklik hisobotlarni kiritilishini ta’minlash.	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi E-anticor.uz platformasiga tegishli yo‘nalish va indekatorlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuklanadigan ma’lumotlarni har chorakda tahlil hamda nazorat qilib borish. Tahlil natijasida shakllangan hisobotni platformaga joylashtirish.	2026-yil har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi
Monitoring va nazorat				
20.	Korrupsiyaning oldini olishga doir ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini joylarga chiqqan holda monitoring qilish.	Hududiy bo‘linmalarda tasdiqlangan grafik asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash va monitoring qilish va uslubiy ko‘mak ko‘rsatish.	2026-yil tasdiq-langan grafik asosida	Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi

Korrupsiyaga qarshi kurashish
va komplayens nazorati bo‘limi boshlig‘i **O. Samadov**